

BOSHLANG'ICH TA'LIM TABIIY FAN DARSLARIDA ATROF MUHITNI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA O'RGATISH TEXNALOGIYALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14909842>

Jabbarova Zuhra Omordullayevna

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism tabiiy fan darslarida tabiat va atrof muhit bilan tanishtirish, ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish, tabiatni, atrof muhitni asrash, ehtiyoj qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalashda innovatsion yondashuvlar asosida o'rgatish texnalogiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarini mukammal shaxs sifatida shakllanishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lism, tabiiy fan, tabiat, atrof muhit, innovatsion yondashuvlar, STEAM ta'lism tizimi, interfaol metodlar, innovatsion metodlar

Аннотация. В данной статье освещено формирование учащихся как совершенных личностей посредством использования технологий обучения, основанных на инновационных подходах к воспитанию в духе охраны, заботы и защиты природы и окружающей среды на уроках естествознания начального образования, формирующих основы научного мировоззрения.

Ключевые слова: начальное образование, естествознание, природа, окружающая среда, инновационные подходы, система образования STEAM, интерактивные методы, инновационные методы.

Annotation. This article highlights the formation of students as perfect individuals through the use of learning technologies based on innovative approaches to education in the spirit of conservation, care and protection of nature and the environment in science lessons of primary education, forming the foundations of a scientific worldview.

Key words: primary education, natural science, nature, environment, innovative approaches, STEAM education system, interactive methods, innovative methods.

Ta'lism jarayoni nihoyatda murakkab jarayondir. Ta'limming barcha bo'g'inalarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va ilmiy asoslangan

bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlarga o'rgatsin. Ta'lrim jarayonida o'quvchida mustaqil bilim olish ehtiyoji shakllanib borishi, o'rganiladigan o'quv materiallar hajmining kattaligi, ko'rib chiqiladigan jarayonlarning o'zgaruvchanligi, hozirgi zamon boshlang'ich sinf tabiiy fanni o'rgatishda innovatsion metodlarni joriy etish hozirgi kunning talabidir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati ta'limda o'quvchilarini qiziqtirib o'qitish va bilimlarini to'liq o'zlashtirishga erishishdir.

Yosh avlodni yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalashda, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni ardoqlovchi inson qilib tarbiyalashda innovatsion ta'lism texnologiyalarni qo'llash muhim o'rinni egallab kelmoqda.

Bugungi kunda ta'lism jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lism bosqichida tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlar va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarining atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Hozirgi kunda ekologik muammolar va atrof-muhit muhofazasi masalalari dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilarini atrof-muhitni o'rganishga qiziqtirish va ularda ekologik madaniyatni shakllantirish muhimdir [1].

Innovatsion yondashuvlar quyidagilarni ta'minlaydi:

- O'quvchilarining faolligini oshirish;
- Atrof-muhitga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;
- Ilmiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- Qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratish.

Innovatsion yondashuvlar o'quvchilarining tabiatni tushunishiga yordam beradi. Quyidagi ta'lism texnologiyalar ta'lism samaradorlikni oshirishida muhim ahamiyat ega:

STEAM ta'lim tizimi STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) integratsiyalangan yondashuv bo'lib, tabiiy fanlarni texnologiya, muhandislik, san'at va matematika bilan bog'lab o'rganishni ta'minlaydi.

Loyiha asosida o'qitish. O'quvchilarga mustaqil tadqiqot olib borish imkonini beradi. Masalan, o'quvchilar mahalliy ekologik muammolarni o'rganib, ularning yechimlarini taklif qilishlari mumkin [2].

Interfaol metodlar

- "Tashqi kuzatuv" - o'quvchilar o'zlari kuzatgan tabiat hodisalari asosida muhokamalar olib boradilar;
- "Aqliy hujum" - muammoli vaziyatlar bo'yicha fikr almashish;
- "Rolli o'yinlar" - ekologik muammolarni sahnalashtirish.

Virtual laboratoriylar va AR/VR texnologiyalar

- Mobil ilovalar va virtual laboratoriylar orqali tabiiy jarayonlarni vizualizatsiya qilish;

- O'quvchilar uchun interfaol darslar yaratish.

Innovatsion yondashuvlar asosida darslarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar:

Tayyorlov bosqichi

- Dars mavzusiga mos interfaol metodlarni tanlash;
- Zarur jihozlar va resurslarni tayyorlash;
- O'quvchilar uchun savollar hamda topshiriqlar tuzish.

Asosiy bosqich

- O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish;
- Eksperiment va kuzatuvlar o'tkazish;
- Natijalarni muhokama qilish va umumlashtirish.

Xulosa va baholash bosqichi

- o'quvchilarning faol ishtirokini baholash;
- yakuniy fikrlarni shakllantirish;
- o'zaro fikr almashish va tahlil qilish.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvlar ta'lif jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni ilmiy izlanishlarga jalb qiladi. Natijada, bolalar ekologik madaniyat va ilmiy tafakkur ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Innovatsion metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu metodlar orqali o'quvchilar faollikka, tadqiqotga va kashfiyotga yo'naltiriladi [3].

Tabiiy fan darslarida qo'llaniladigan innovatsion metodlar:

Interaktiv o'yinlar: O'quvchilarning diqqatini jalb qilish va mavzuni yaxshiroq o'zlashtirish uchun turli interaktiv o'yinlardan foydalanish mumkin.

Loyiha usuli: O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, ularga atrof-muhit bilan bog'liq loyihalarni bajarishni topshirish. Bu usul ularning jamoada ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Multimedia texnologiyalari: Darslarda video, animatsiya va interaktiv dasturlardan foydalanish orqali mavzuni yanada qiziqarli va tushunarli qilish.

Masalan: Ekologik ekskursiyalar: O'quvchilarni tabiat qo'yning olib chiqib, ularga o'simliklar va hayvonot olami haqida amaliy bilim berish.

Virtual laboratoriylar: Internetdagi virtual laboratoriylar orqali o'quvchilar turli tajribalarni masofadan turib o'tkazishlari mumkin.

Innovatsion metodlarni joriy etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar

O'quvchilarning yosh xususiyatlari: Metodlarni tanlashda o'quvchilarning yoshiga mosligini inobatga olish.

Resurslar: Zarur texnik va moddiy resurslarning mavjudligi.

O'qituvchining tayyorlarligi: O'qituvchi innovatsion metodlarni qo'llash bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich ta'lilda tabiiy fan darslarida innovatsion yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning atrof-muhitni o'rganish, tabiatni o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu esa ularning ekologik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

"**Jajji tadqiqot**" metodi orqali o'quvchilarni tasavvuri va idrok etishi kengayadi, fikrlash qobiliyati o'sadi, so'z boyligi ortadi, erkin fikrlashga o'rgatadi. Og'zaki va yozma nutqini o'stiradi. Atrof muhitga bo'lgan ijobiy munosabati ortadi. Bu orqali o'quvchida mehnatga bo'lgan qiziqish, estetik zavq olishi, kasb - hunarga bo'lgan muhabbat ortib boradi. O'quvchilarda bu metod orqali do'stona munosabatlari shakllanib boradi.

"**Jajji tadqiqot**" metodini 3-sinf tabiiy fan darsligida berilgan "Amaliy mashg'ulot" va "Bob yuzasidan mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar" kabi mavzularda qo'llash mumkin.

Masalan: "Sezgi organlari yordamida mevalarni o'rganamiz" mavzusida turli mevalardan sharbat tayyorlashni, o'quvchilar ham o'zlari yoqtirgan mevalardan sharbat tayyorlashni og'zaki aytishdi. Mevalardan yogurt tayyorlashni tushuntiriladi va o'quvchilar ham o'zlari yoqtirgan mevalaridan yogurt tayyorlashni o'rganadilar[4].

Bu metodimizda fanllararo bog'lanish bo'ladi, bolalarni tushunishi osonlashadi, fikrlash doirasi kengayadi. Dunyoqarashi kengayadi, og'izaki nutqi ravonlashadi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham ishtirot etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini shaxs sifatida mukammal shakllanishida atrof muhitni o'rganish, tabiat, unda bo'ladigan tabiat hodisalari, tabiat qonuniyatları muhim rol o'ynaydi. Bolalar tabiat va atrof muhit bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlanib shakllanib boradi va ular tabiatini, atrof muhitni asrash, ehtiyyot qilish va muhofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar. Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan kamolga yetkazgan. Shunday ekan, o'quvchi yoshlar tabiatni aroqlashi, unga to'g'ri munosabatda bo'lib, tabiatni yana ham ko'rksamligiga, obodonlashtirish ishiga o'z xissasini qo'shishishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama kamol toptirishi va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson yoshlik chog'idanoq tabiat qo'ynida o'sadi, ulg'ayib kamol topadi. Bolani

yoshligidanoq tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borish zarur.

Boshlang'ich ta'lif tabiiy fan darslarida atrof muhitni innovatsion yondashuvlar asosida darslarini tashkil etish o'quvchilarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ekologik bilim va ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa kelajak avlodning ekologik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila di.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultanova T.H., Qulmo'minov O.S. "Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan darslarini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanish usullari" International Conference on Multidisciplinary Science, 2024-yil.
2. "STEAM Education Framework" - UNESCO, 2020.
3. Umirova M.M. "Boshlang'ich ta'lif fanlarini o'qitishda innovatsion yondashuv" International Journal of Recently Scientific Researcher's Theory, 2024-yil.
4. M.Maxmudova, S.Jo'rayeva "Tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Namangan, 12-13 betlar, 2024.